



## **XIX–XX ASRLARDA O‘ZBEK XALQINING MUSTAQILLIKKA QADAR BO‘LGAN YO‘LI VA UNDA OLINGAN TARIXIY SABOQLAR**

**Boboyev Jahongir Ravshanbek o‘g‘li**

Sarvon universiteti

290-25 XMuz 1-bosqich talabasi

[boboyevjahongir50@gmail.com](mailto:boboyevjahongir50@gmail.com)

### **Annotatsiya:**

O‘zbek xalqi azal-azaldan boy tarixiy merosga va o‘ziga xosligi sababli boshqa xalqlardan ajralib turadi. Mazkur maqolada o‘zbek xalqining XIX–XX asrlarda mustaqillikka erishish yo‘li tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi, bu jarayonda mahalliy siyosiy kuchlarning zaifligi va ichki nizolarning salbiy ta‘siri yoritiladi. Shuningdek, milliy ozodlik harakatlari, jadidchilik faoliyati hamda sovet davridagi qatag‘onlarning jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta‘siri keng yoritilgan.

Maqolada Rossiya imperiyasining hududni bosib olish jarayonida “bo‘lib tashla va hukmronlik qil” tamoyilidan foydalangan holda xonliklarni bosqichma-bosqich mustamlakaga aylantirgani tahlil qilinadi. Bundan tashqari, sovet davridagi siyosiy repressiyalar, ayniqsa milliy ziyolilar va jadidlarning ta‘qib qilinishi natijasida jamiyat rivojiga yetkazilgan zararlar ko‘rsatib o‘tiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — tarixiy voqealarni tahlil qilish orqali milliy ozodlik kurashlarining ahamiyatini ochib berish hamda o‘tmish tajribasi asosida muhim tarixiy xulosalar chiqarishdan iborat. Muallif o‘zbek xalqining erkinlikka intilishi va milliy o‘zlikni saqlab qolish yo‘lidagi kurashini alohida ta‘kidlaydi.

Kalit so‘zlar:



Mustamlakachilik, Turkiston, qatag'onlar, jadidlar, sovet davri, qatag'on qurbonlari, xonliklar, Orol fojiasi, paxta ishi, mustaqillik.

The Path of the Uzbek People to Independence in the 19th–20th Centuries and the Historical Lessons Derived from It.

Annotation: (English)

This article analyzes the path of the Uzbek people toward independence in the 19th–20th centuries based on historical sources. The study examines the conquest of Central Asia by the Russian Empire, highlighting the role of internal political fragmentation and the weakness of local authorities in facilitating this process. It also explores the impact of national liberation movements, Jadid reformist activities, and Soviet-era repressions on the development of society.

The article further analyzes how the Russian Empire gradually transformed the khanates into colonies by applying the principle of “divide and rule.” In addition, it addresses the consequences of political repression during the Soviet period, particularly the persecution of national intellectuals and Jadid reformers, which caused significant damage to the intellectual and cultural development of society.

The main objective of the research is to reveal the importance of national liberation movements through historical analysis and to draw meaningful conclusions based on past experiences. The author emphasizes the Uzbek people's enduring aspiration for freedom and their efforts to preserve national identity.

Keywords:

Colonialism, Turkestan, repressions, Jadids, Soviet period, victims of repression, khanates, Aral Sea tragedy, Cotton Affair, independence.

Путь узбекского народа к независимости в XIX–XX веках и извлечённые из него исторические уроки.

**Аннотация: (Russian)**



В данной статье анализируется путь узбекского народа к независимости в XIX–XX веках на основе исторических источников. В исследовании рассматривается процесс завоевания Центральной Азии Российской империей, а также роль внутренней политической раздробленности и слабости местной власти в этом процессе. Кроме того, освещается влияние национально-освободительных движений, деятельности джадидов и репрессий советского периода на развитие общества.

В статье также анализируется, каким образом Российская империя постепенно превратила ханства в колонии, применяя принцип «разделяй и властвуй». Отдельное внимание уделяется последствиям политических репрессий советского периода, в частности преследованию национальной интеллигенции и джадидов, что нанесло серьёзный ущерб интеллектуальному и культурному развитию общества.

Основная цель исследования — раскрыть значение национально-освободительных движений на основе исторического анализа и сделать обоснованные выводы, опираясь на исторический опыт. Автор подчёркивает стремление узбекского народа к свободе и сохранению национальной идентичности.

Ключевые слова:

Колониализм, Туркестан, репрессии, джадиды, советский период, жертвы репрессий, ханства, Аральская трагедия, хлопковое дело, независимость.

**Kirish:** O'zbek xalqi ko'p asrlik boy tarixga, mustahkam milliy qadriyatlarga va yuksak ma'naviy merosga ega xalq hisoblanadi. Markaziy Osiyoda shakllangan bu xalq o'zining tili, madaniyati, urf-odatleri hamda ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Ayniqsa, XIX–XX asrlar o'zbek xalqining tarixida murakkab, ziddiyatli va sinovlarga boy davr



bo'lib, bu yillarda xalq mustamlakachilik siyosati, siyosiy bosimlar va ijtimoiy adolatsizliklar ta'sirida yashadi.

Rossiya imperiyasi Turkiston hududlarini bosib olishi natijasida mahalliy boshqaruv tizimi izdan chiqdi, iqtisodiy resurslar markaz manfaatlariga bo'ysundirildi, milliy qadriyatlar va erkinliklar cheklandi. Keyinchalik sovet davrida amalga oshirilgan qatag'on siyosati, majburiy islohotlar hamda "paxta ishi", "Orol fojiasi" kabi muammolar jamiyat taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, jadidchilik harakati, milliy ozodlik kurashlari xalq ongida mustaqillik g'oyasining shakllanishiga xizmat qildi.

Mazkur maqolada XIX–XX asrlarda o'zbek xalqining mustaqillikka erishish yo'li, mustamlakachilik siyosatining oqibatlari hamda milliy ozodlik harakatlarining tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — muammolarga to'g'ri yechim berish, hususan xalqimiz ichida hanuzgacha saqlanib qolgan sobiq sovet tizimini qumsaydigon insonlar uchun milliylik hamda mustaqillik oliy ne'mat tuyg'usini shakllantirish, tarixiy sabablardan to'g'ri xulosa chiqarish, o'zbek xalqining erkinlik sari olib borgan kurashini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

#### **Tadqiqot metodologiyasi:**

Mazkur tadqiqot tarixiy-qiyosiy, tizimli va muammoli tahlil metodlariga asoslanadi. XIX–XX asr voqealari sabab-oqibat bog'liqligida va o'zaro ta'sir doirasida batafsil o'rganildi. Tadqiqotda arxiv hujjatlari, rasmiy tarixiy manbalar, ilmiy maqolalar, shuningdek, mustaqillik davrida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar asos sifatida qo'llanildi. Metodologiya orqali tarixiy jarayonlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillari tizimli tahlil qilinib, ularning O'rta Osiyo hududi va milliy davlatchilik rivojiga ta'siri aniqlangan. Shu bilan birga, muammo va sabab-oqibat aloqalari izchil yoritildi, ilmiy xulosalar chiqarildi.

#### **Asosiy qism:**

Malumot to'plash jarayoni.



Rossiya imperiyasi tashqi siyosatda o'z chegaralarini sharqqa tomon kengaytirish uchun dastlab Markaziy Osiyo davlatlari bo'lgan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari bilan har tomonlama aloqalar o'rnatishga harakat qildi. Ya'ni Rossiya O'rta Osiyoga birdan, ogohlantirmasdan bostirib kirgan emas. Ular avvalo O'rta Osiyo davlatlarini obdon sinchiklab o'rgangan, iqtisodiy ahvolini, siyosiy va harbiy holatini, xalq bilan hukumat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilgan. Shuningdek, hukumatga qarshi guruhlarini shakllantirish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlashga harakat qilgan. Umuman olganda, O'rta Osiyoni egallash uchun qanday ma'lumotlar zarur bo'lsa, ularning barchasini to'plab, chuqur o'rganishgan.

Avvalo xonliklar haqida ko'proq ma'lumot to'plash maqsadida bu hududlarga tez-tez elchilar yuborilgan. Bunday harakatlar, ayniqsa, Rossiya imperatori Pyotr I hukmronligi davrida yanada jadallashdi. Dastlab Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy ekspeditsiya yuborildi. Ammo bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchrach, podsho hukumati harbiy istehkomlar qurishga kirishdi. 1718-yilda Irtish daryosi sohilida shunday istehkomlardan yettitasi qurib bitkazildi.

Endilikda ayg'oqchilik faoliyati bilan faqat elchilar emas, balki sayyoh va savdogarlar ham shug'ullana boshladi. Ular O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy ahvoli, suv va quruqlikdagi yo'llari to'g'risida ma'lumotlar yig'ib bordilar.[1; b. 19]

Angliyaning qiziqish bildirishi.

Rossiyaga O'rta Osiyo nega kerak edi, degan savol tug'iladi. Bunga javoban bir nechta omillar keltiriladi. XIX asrda Rossiya imperiyasining sanoat xomashyosiga bo'lgan ehtiyojining ortishi, to'qimachilik sanoati uchun arzon paxta yetkazib berish muammosining yuzaga kelishi O'rta Osiyoni bosib olishni yanada tezlashtirgan omillar sifatida ko'rsatiladi. Shuning uchun ham O'rta Osiyoni bosib olish Rossiya imperiyasining birinchi darajali vazifasiga aylandi.



Bundan tashqari, xalqaro doirada ingliz tovarlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi, Angliyaning bu hududga qiziqish bildirayotgani Rossiyani havotirga sola boshladi. Shu sababli inglizlar O'rta Osiyoga kelishidan oldinroq ruslar harakatni boshlab yubordi.

Lekin Buyuk Britaniya ham befarq qaramadi. Mustamlaka hududlarni egallab kelayotgan Ost-Indiya kompaniyasi XIX asrdan boshlab strategik ahamiyatga ega bo'lgan xonliklarning tabiiy boyliklari va xomashyo mahsulotlariga qiziqqa boshladi. O'rta Osiyoga 1825-yilda Maykl Murkroft Angliya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida yuborildi. U Buxoroga kelib, qaytib ketayotganida ikki hamrohi bilan halok bo'ldi.

1832-yilda Buxoroga Aleksandr Byorns, 1844-yilda mayor Iosif Volf, 1843-yilda esa Xiva va Buxoroga kapitan Jeyms Abbot yuborilgan. Shuningdek, O'rta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ularni Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy ittifoqqa jalb qilish taklifi bilan kelgan Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari — Charlz Stoddart va Artur Konolli 1842-yilda amir tomonidan qatl etildi.

Bunga javoban Angliya hukumati Buxoroga qarshi Afg'oniston bilan sulh tuzib, ularni qurollantirdi. Natijada Afg'oniston Buxoro amirligi hududining bir qismini bosib oldi. 1855-yilda o'zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohilidagi hududlar Afg'oniston viloyatiga aylantirildi.[1; b. 20] Bo'lib tashla va hukumronlik qil.

Xonliklarni bosib olishda Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo bilan bog'lovchi savdo yo'llarini to'liq o'z qo'lga olishga harakat qildi. Natijada asosiy yo'l hisoblangan Toshkentga boradigan Orenburg yo'lida harbiy istehkomlar qurildi. Sirdaryoning Orolga quyilish joyida 1847-yilda Raim qal'asi bunyod etildi.

Lekin biror davlat boshqa hududga bostirib kirishi uchun sabab kerak edi. Chegara hududlarida yashaydigan Rossiya fuqarolariga talonchilik va



bosqinchilik qilib turuvchi guruhlarining hujumlarini bartaraf etish podsho hukumatining O'rta Osiyoga harbiy yurishlarni boshlashiga bahona bo'ldi.

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi uzoq vaqt davom etgan o'zaro urushlar ularni iqtisodiy va harbiy jihatdan zaiflashib qolishiga olib keldi. Bunday vaziyat esa O'rta Osiyo xonliklarining istilo qilinishini osonlashtirdi. Shunday vaziyatda Rossiya hukumati o'z manfaatlarini ko'zlab O'rta Osiyoga harbiy istilochilik harakatlarini boshladi. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni to'rt bosqichga bo'lib bosib oladi.

Birinchi bosqich (1847–1865-yillar):

1847–1865-yillarda Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining shimoliy-g'arbiy viloyatlari va Toshkent shahri istilo qilindi. Istilo etilgan hududlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Turkiston viloyati tashkil topdi.

Ikkinchi bosqich (1865–1868-yillar):

Bu bosqichda Qo'qon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlari amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich (1873–1879-yillar):

Bu davrda Xiva va Qo'qon xonliklari yerlarini bosib olish ishlari olib borildi.

To'rtinchi bosqich (1880–1885-yillar):

Bu yillarda turkmanlarning bo'ysundirilishi amalga oshirildi. Shunday qilib, 1864–1885-yillarda 20 yildan ortiq vaqt davomida Rossiya imperiyasining uzoq davom etgan harbiy tayyorgarligi natijasida bosqinchilik urushlari olib borildi. O'rta Osiyo xonliklari hududining katta qismi bosib olinib, mustamlakaga aylantirildi[1; b. 21].

Xalq qo'zg'olonlari va Vabo isyoni.

XIX asrda ruslar xonliklarni bosib olar ekan, albatta, mahalliy aholiga o'z zulmini o'tkazib keldi. Ayniqsa, xalqdan olinadigan soliqlarning haddan tashqari



oshirilishi, hech qanday sabablarsiz dehqonlardan yerning olib qo'yilishi va xalq shikoyatlarining umuman inobatga olinmasligi, qo'pol qilib aytganda, O'rta Osiyo xalqini g'azabga keltirdi va mustaqillik harakatiga undadi.

Soliqlarning oshib ketgani sababli 1878-yilda Mingtepa tumanida Yetimxon qo'zg'oloni ko'tarildi, keyinchalik esa 1879-yilgi norozilik namoyishlari bilan Farg'ona viloyatiga yoyildi. Ular Marg'ilon uyezdida noqonuniylikka qarshi kurashishga va soliqlarni kamaytirish uchun to'planishdi.

Xalqni talon-toroj qilish va noqonuniy soliqlar sababli 1882-yilda Namangan xalqi qo'zg'olon ko'tardi. 1885-yil yoz oyida Farg'ona vodiysida yana qo'zg'olon ko'tarildi. Darveshxon bu qo'zg'olonga boshchilik qildi.

Toshkentda "Vabo isyoni"

1892-yilning mart oyida Afg'onistonda vabo kasalligi tarqaldi. Bahor faslining oxirlariga kelib bu kasallik Samarqand viloyatining Jizzax uyezdida, 7-iyunda esa Toshkentda ham qayd etildi.

Toshkent shahar ma'muriyati kasallikka qarshi tadbirlar qatorida shahardagi 12 ta qabristonni yopib qo'ydi. Kasallikdan vafot etganlar uchun shahar tashqarisidan maxsus qabristonlar ochish va'da qilindi. Lekin amalda shahar tashqarisida faqatgina bitta qabriston ochildi. Sanitariya tadbirlari xalqqa ishonarli qilib tushuntirilmadi. Bundan tashqari, shifokor va feldsherlar yetishmasligi sababli bemorlar o'z vaqtida davolanmay, vafot etar edi.

1892-yildagi norozilik harakatlarini keltirib chiqargan asosiy sabablar: birinchidan, mahalliy aholiga nisbatan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mustamlakachilik zulmining tobora kuchayib borayotganligi; ikkinchidan, oddiy aholi, hunarmandlar va mardikorlarning ayovsiz ishlatilishi; uchinchidan, iste'mol mahsulotlari narxlarining to'xtovsiz oshib borishi, soliqlarning ko'pligi; to'rtinchidan, amaldorlarning o'z mansablarini suiiste'mol qilishi, poraxo'rlik kabi holatlarning ko'payib ketishi bo'ldi.



Shu kabi va shunga o'xshash norozilik namoyishlari bir talay. Biz ularning har birini bilishimiz lozim, negaki bu yo'lda minglab ota-bobolarimiz o'zining shirin jonlarini biz uchun, kelajagimiz uchun fido qilganlar. Faqatgina buyuk xalq bunday ishni qilishga qodir bo'ladi. Bunga esa jadidlarimiz yaqqol misol bo'la oladi[1; b. 65].

Jadidchilik harakatlari va sovet tizimi zulmi.

XX asr boshlarida jadidchilik harakati vujudga keldi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar xalqni savodli qilish, milliy ongini uyg'otish orqali mustaqillikka erishishni maqsad qildilar. Ular gazeta va jurnallar chiqardilar, yangi usul maktablarini ochdilar hamda milliy g'oyani targ'ib qildilar. Afsuski, sovet hokimiyati o'rnatilgach, jadidlarning aksariyati "xalq dushmani" sifatida qatag'on qilindi va otib tashlandi.

1916-yildagi Turkiston qo'zg'oloni hamda 1917–1924-yillarda davom etgan bosmachilik harakati milliy ozodlik kurashining qurolli shakli bo'ldi. Minglab insonlar janglarda halok bo'ldi yoki surgun qilindi. Ayniqsa, qishloqlar vayron qilinib, tinch aholi katta talafot ko'rdi.

1930-yillardagi Stalin qatag'onlari xalqimiz tarixidagi eng fojeali sahifalardan biridir. Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi yuzlab ziyolilar soxta ayblar bilan qamaldi yoki qatl etildi. Minglab begunoh insonlar Sibir va boshqa hududlarga surgun qilindi. Bu qatag'onlar millatning ilmiy va madaniy rivojiga katta zarba berdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston xalqi frontda va front ortida fidokorona mehnat qildi. Urushdan keyingi davrda ham markaziy hokimiyatning iqtisodiy siyosati respublika manfaatlariga zid bo'ldi. Paxta yakkahokimligi va ekologik falokatlar, ayniqsa, Orol dengizi fojeasi xalq salomatligi hamda turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.



1980-yillar oxirida “Paxta ishi” deb atalgan siyosiy kampaniya minglab begunoh rahbar va ishchilarning jazolanishiga olib keldi. 1989–1990-yillardagi milliy uygʻonish jarayoni xalqning mustaqillikka boʻlgan intilishini yanada kuchaytirdi. Nihoyat, 1991-yil 31-avgustda Oʻzbekiston oʻz mustaqilligini eʼlon qildi[2; b. 112-150].

### **Natijalar:**

Mustamlakachilik davrining asosiy natijalaridan biri iqtisodiy yoʻnalishning oʻzgarishi boʻldi. Hudud xomashyo bazasiga aylantirildi, ayniqsa paxta yetishtirish keskin kengaydi. Mamlakat iqtisodiy qaramga aylandi. Oʻrta Osiyo hududlariga ruslarni koʻchib kelishi, rus-tuzem maktablari ochilishi, bir tomondan bizni dunyoviy talim usullari bilan bogʻlagan boʻlsa, boshqa tomondan bizni dinimizni, milliy qadriyatlarimizni va mafkuraviy qarashlarimizni cheklab qoydi. Xalqni birlashishga va mustaqillikka daʼvat qilgan har bir inson qatagʻon qilindi. Buni oqibatida xalqning eng ziyoliy qatlami qirib tashlandi. Nihoyat 1991-yilga kelib Oʻzbekiston mustaqillikka erishdi, bu yoʻlda koʻplab insonlar oʻz jonlaridan kechdi, qarib bir asir davomida Rossiya Oʻrta Osiyo hududidan oʻz manfaat uchun foydalanib keldi.

### **Xulosa:**

Orta Osiyo hududlari egallanishiga birinchi navbatda xonlarning notoʻgʻri siyosati sabab boʻlgan, yuqorida takidlanganidek Oʻrta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ularni Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy ittifoqqa jalb qilish taklifi bilan kelgan Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari — Charlz Stoddart va Artur Konolli 1842-yilda amir tomonidan qatl etiladi bu esa Angliyaning gʻazabiga sabab boʻladi va bunga javoban Angliya hukumati Buxoroga qarshi Afgʻoniston bilan sulh tuzib, ularni qurollantiradi. Natijada Afgʻoniston Buxoro amirligi hududining bir qismini bosib oldi. 1855-yilda oʻzbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohilidagi hududlar Afgʻoniston viloyatiga aylantirildi.



XIX asrning oxiriga kelib ham Buxoro amirligi, Xiva va Qoqon xonligi askarlarida harbiy kiyim bosh yo'q edi, xonlarning xalq bilan ishi yo'q, saroy tinch bo'lsa bo'ldi edi. Ayniqsa O'rta Osiyo davlatlari bir biri bilan to'xtovsiz jang qilishi davlatni ancha qashoq ahvolga solib qo'ygandi, bundan esa Rossiya imperiyasi foydalanib qoldi va O'rta Osiyoni o'z mustamlakasiga aylantirdi. Hozirgi kunga kelib turkiylarning bo'linib ketishiga aslida o'zimiz sababchimiz, qo'shni qardoshlar bilan jang qilish emas, g'animga birgalikda qarshi turishimiz kerak edi.

Bugungi kunga kelib oramizda sovet tisimini qumsaydigonlar topiladi, bunga esa insonlar o'z tarixini yaxshi bilmasligi sabab bo'ladi, muammoning yechimi esa yosh avlodga tarixdan to'g'ri saboq berish va yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish lozim.

O'z xulosamda shuni aytmochimanki turkning bosh bo'g'ini bo'lgan o'zbek xalqi boshiga tushgan bu ko'rgilik Oллоhning bizga bergan bir sinovi edi, chunki faqatgina buyuk xalq bu sinovdan o'tib, yana o'zini buyuklik maqomiga qayta oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi / XIX asrning ikkinchi yarimi – XX asr boshlari – Toshkent-2019. 19-65.
- 2.Jadidchilik harakati tarixi / B. Qosimov. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005. – 112-150.
- 3.O'zbekistonning eng yangi tarixi / A. Ziyov. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012. – 210-245.
- 4.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch / I. A. Karimov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 25-40.
- 5.Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi davrida / S. Abdurahmonov. – Toshkent, 2015. – 60-95.